

## JAMIYAT TARAQQIYOTIDA UYG‘UNLIKNI TA’MINLASHNING DISSIMMETRIK PARADIGMASI

Bekpo‘latov Ulug‘bek Rahmatulla o‘g‘li, Navoiy davlat  
pedagogika instituti doktoranti, falsafa fanlari bo‘yicha falsafa  
doktori (PhD), dotsent

## THE DISSYMMETRIC PARADIGM OF ENSURING HARMONY IN THE DEVELOPMENT OF SOCIETY

Bekpulatov Ulugbek Rakhmatulla o‘g‘li, Doctoral  
student of the Navoi State Pedagogical Institute, Doctor of  
Philosophy (PhD), Associate Professor

## ДИССИММЕТРИЧНАЯ ПАРАДИГМА ОБЕСПЕЧЕНИЯ ГАРМОНИИ В РАЗВИТИИ ОБЩЕСТВА

Бекпулатов Улугбек Рахматулла оглы, докторант  
Навийского государственного педагогического института,  
доктор философских наук (PhD), доцент

**Annotatsiya:** Maqolada ijtimoiy uyg‘unlikning jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati simmetriya va assimetriya birligi hisoblangan dissimetriya paradigmasi kontekstida izohlangan. “Ijtimoiylashuv”, “ijtimoiy hamkorlik”, “adolat” kabi ijtimoiy-falsafiy kategoriyalarning dissimetrik mohiyati ochib berilgan. Shuningdek, ijtimoiy tizim hodisalarini sinergetik yondashuv asosida falsafiy tahlil etishdagi metodologik muammolar va ularni hal etish imkoniyatlari ko‘rsatib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** simmetriya, dissimetriya, asimetriya, simmetriya va asimetriya birligi, uyg‘unlik, jamiyat, taraqqiyot, ijtimoiy gravitatsiya, sinergetika, ijtimoiy hamkorlik.

**Abstract:** The article explains the importance of social harmony in the development of society in the context of the paradigm of dissymmetry, which is considered the unity of symmetry and asymmetry. The dissymmetric essence of such socio-philosophical categories as socialization, social cooperation, and justice is revealed. Methodological problems and the possibilities of their solution in the philosophical analysis of the phenomena of the social system based on a synergetic approach are also shown.

**Key words:** symmetry, dissymmetry, asymmetry, unity of symmetry and asymmetry, harmony, society, progress, social gravity, synergetics, social cooperation.

**Аннотация:** В статье объясняется значение социальной гармонии в развитии общества в контексте парадигмы диссимметрии, считающейся единством симметрии и ассиметрии. Раскрыта диссимметричная сущность таких социально-философских категорий как социализация, социальное сотрудничество, справедливость. Также показаны методологические проблемы и возможности их решения в философском анализе явлений социальной системы на основе синергетического подхода.

**Ключевые слова:** симметрия, диссимметрия, асимметрия, единство симметрии и ассиметрии, гармония, общество, прогресс, социальная гравитация, синергетика, социальное сотрудничество.



<https://orcid.org/0009-0007-4101-8767>

e-mail:  
[bekpolatov.u@mail.ru](mailto:bekpolatov.u@mail.ru)

**KIRISH.** Hozirgi zamon global ijtimoiy borlig'i o'zining asimmetrik xarakteri va nochiziqilik tabiati bilan o'ziga xoslik kasb etib, insoniyatning o'zaro munosabatlari tizimida turli murakkabliklarni keltirib chiqarmoqda. Qurolli urushlar, axborot xuruylar, axloqiy buzuvchiliklar, diniy va milliy nizolar, turli kasalliklarning global miqyosda tarqalishi, iqtisodiy va ekologik inqirozlar ko'lamining keskinlashuvi kabi muammolar butun insoniyat oldida yangicha dunyoviy tartibot qonunlarini va uyg'unlikka asoslangan o'zaro munosabatlar tizimini yaratish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Kishilik jamiyatining bir necha ming yillik ilmiy-nazariy va ijodiy taraqqiyoti tarixida umummetodologik ahamiyatga ega bo'lgan g'oyalari borki, ular vositasida insonlar hatto ijtimoiy-siyosiy va madaniy rivojlanishning yuksak natijalariga erishgan. O'zida tartibot, uyg'unlik, muvozanat, muvofiqlik, ritm, turg'unlik, ekvivalentlik kabi bir qator ma'nolarni aks ettirgan simmetriya g'oyasi, shu bilan birga sanab o'tilgan bu jihatlarning buzilishi va yo'qolishini o'zida aks ettiradigan dissimmetriya hamda asimmetriya g'oyalari ham o'ta muhim evristik, metodologik ahamiyat kasb etadi.

#### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD.**

Simmetriya, dissimmetriya va asimmetriya kategoriyalarga oid g'oyalardan matematika, fizika, kimyo, biologiya, geografiya, musiqa, psixologiya, filologiya kabi bir qator fanlarda [1.B.15-18], shuningdek, texnika, arxitektura, tasviriy san'at, dizayn kabi ko'plab sohalarida juda keng foydalaniladi[2]. Lekin, bu tamoyillarning umumiyliigi va muhimligi shu bilangina cheklanmay, ularga qadimdan buyon siyosiy boshqaruvda, axloqiy mezonlarni ishlab chiqishda, insonlar orasidagi munosabatlarni tartibga solishda ham e'tibor qaratilgan[3]. Ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy jarayonlarda simmetriya, dissimmetriya va asimmetriya tamoyillariga oid ba'zi zamonaviy tadqiqot ishlari olib borilgan bo'lsa-da [4.B.196-206], bu tushunchalarning ijtimoiy-falsafiy mohiyati, jamiyat tashkillashishi va taraqqiyotidagi o'rni tizimli tadqiq etilmagan. Bizningcha, bunga sabab simmetriya, dissimmetriya va asimmetriya tamoyillarining aniq va tabiiy fanlardagi mazmuniga muvofiq keladigan ijtimoiy hodisalarni hamda ularning o'zaro munosabatlarini aniqlashning

murakkabligidir. Haqiqatdan ham bu tushunchalarning aniq va tabiiy fanlardagi mazmuni geometrik va matematik operatsiyalar, turli murakkab tenglamalar orqali amalga oshiriladi. Shuning uchun ham ularning ijtimoiy hodisalardagi analogini topish har doim ham oson kechmaydi. Shunday bo'lsa-da, ijtimoiy falsafaning kategorial tushunchalari mohiyatida ma'lum darajada simmetriya, dissimmetriya va asimmetriya kategoriyalariga aloqador jihatlarni topish mumkin.

**MUHOKAMA.** Simmetriyaning keng ma'nodagi ijtimoiy mazmuni ijtimoiylashuv jarayoni bilan chambarchas bog'liq. Chunki kishilik jamiyati paydo bo'lgan davrlardan boshlab odamlar yashab qolish va ko'payish uchun, o'zlarining turmush sharoitlarini yaxshilash maqsadida o'zaro hamkorlikda, birdamlikda va birlikda harakat qilganlar. Bunday munosabatlar oxir-oqibatda o'zaro hamkorlik qilayotganlarning bir murosaga kelib, o'zlarining baxt-soadati yo'lida birgalashib xizmat qilishlariga olib kelgan, ya'ni ular o'rtasida ijtimoiylashish jarayoni sodir bo'la boshlagan. Ijtimoiylashuv jarayonida inson jamiyatda hayot kechirish imkonini beruvchi bilimlar, me'yorlar va qadriyatlar tizimini, kishilik madaniyatining, xususan, milliy madaniyat an'analari o'zlashtiradi.

“Ijtimoiy hamkorlik” tushunchasida ijtimoiy simmetriyaga tegishli bo'lgan eng muhim xususiyatlar aks etgan bo'lib, bu tushuncha “ijtimoiy strukturalar hamda institutlar o'rtasidagi jamiyat hayotining barcha sohalariga doir munosabatlarda kelishuv, o'zaro ishonch va hurmat, tenglikni ta'minlashga qaratilgan, fuqarolik jamiyati asoslarining mustahkamlanishiga xizmat qiladigan nazariya va amaliyotdir”[5.B.424].

Bundan tashqari, “Adolat” tushunchasi ham ijtimoiy simmetriyaning eng muhim va o'ziga xos xususiyatlaridan biridir. Darhaqiqat “adolat – insoniyatning azaliy orzusi, ezgu g'oyasi, ma'naviyat, axloq va huquqning me'yori”[6. B.15], “...qonun oldida barchaning tengligi va qonunning barchaga barobarligi”, “odillik, to'g'rilik, haqqoniylik”[6.B.15], “ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy, ma'naviy-axloqiy munosabatlarga kirishgan odamlarning o'z burch va vazifalarini jamiyat tomonidan o'rnatilgan axloqiy, siyosiy,

huquqiy, ma'naviy me'yorlar talablaridan kelib chiqqan holda to'g'ri, qonuniy, halol, vijdonan, haqqoniy va odilona bajarishlarini o'zida ifodalovchi xatti – harakatlar tizimidir"[5.B.424]. Bundan ko'rinadiki, ijtimoiy simmetriyaning adolatlilik tamoyiliga rioya etish har qanday jamiyat taraqqiyotida juda muhim ahamiyat kasb etadi. "O'zbekiston — 2030" strategiyasida ham "Xalq xizmatidagi adolatli va zamonaviy davlatni barpo etish" masalasi asosiy g'oya sifatida e'tirof etilganligining [7] o'zi ham, har qanday mamlakatning barqaror taraqqiyotida adolatning naqadar muhim ahamiyatga ega ekanligidan dalolat beradi.

"Ijtimoiy hamkorlik" va "Adolat" tushunchalaridan tashqari, totuvlik, bag'rikenglik, muvozanatlilik, kompromiss, konsensus, yakdillik, kooperatsiya, jamoaviylik, madaniyat, qadriyat, mentalitet kabi ko'plab tushunchalar ham ijtimoiy simmetriyaning mazmunini tashkil etadi.

Dialektik ziddiyat qonuniyati ijtimoiy borliq hodisalariga ham tegishli bo'lganligi sababli, har qanday jamiyatda ijtimoiy simmetriya bilan birgalikda ijtimoiy asimmetriya ham doimo mavjud bo'ladi. Ijtimoiy asimmetriya ijtimoiy simmetriyaning yuqoridagi holatlarining o'zgarishini, sistemaning sifat jihatdan yangi va yanada tashkillashgan holatga o'tishini ifodalaydi. Bizningcha, jamiyat hayotida yuzaga keladigan turli asimmetrik voqeliklarga ijtimoiy simmetriyaga nisbatan dialektik ziddiyat, qarama-qarshi tomon sifatidagina emas, balki postnoklassik ilmiy tafakkur tarzi nuqtayi nazaridan yondoshib, rivojlanishning yangicha imkoniyatlar manbai sifatida qarash lozim. Har qanday ijtimoiy voqelikda ijtimoiy simmetriya va asimmetriya doimo mavjud bo'ladi hamda ularning o'zaro munosabatlaridagi muvofiqlikni ijtimoiy dissimmetriya ta'minlaydi. Demak, dissimmetriya paradigmasi ijtimoiy borliqni simmetriya va asimmetriyaning birligi kontekstida tahlil etishning zamonaviy metodologiyasidir. Yuqorida to'xtalib o'tgan ijtimoiy simmetriya tushunchasi o'zida ijtimoiy gravitatsiyani yuzaga keltirish xususiyatiga ega. Buni quyida ijtimoiy massa va gravitatsiyaning hosil bo'lish jarayoni misolida ko'rib chiqamiz. Tahlillar o'z-o'zini tashkillashtiruvchi sistemalarda elementlarning o'zaro munosabatlar simmetriyasi orqali strukturaviy birlashish jarayoni sodir bo'lishini va

oqibatda massaning yuzaga kelishini ko'rsatmoqda. Shunga binoan, inson ijtimoiy olamda o'zining bor ekanligini shu olamga qo'shilish istagi qachon paydo bo'lsagina his qiladi. Insonning ijtimoiy olamga qo'shilish istagi uning talabi yoki ehtiyoji tufayli sodir bo'ladi. Agar insonda bu ehtiyoj yoki talab bo'lmasa va u bu talabini qondirishga intilmasa, harakat qilmasa u ijtimoiy olamda ko'rinmaydi, oddiy qilib aytganda u yo'q (lekin har qanday inson ma'lum darajada ijtimoiy olamda mavjud bo'ladi). Inson ijtimoiy olamda bor bo'lishi uchun, o'z xohish-istaklariga javob olish maqsadida atrofdegilar bilan o'zaro muloqotni, ta'sirlashishni, munosabatga kirishishni boshlashi kerak. Bu ta'sir boshlanishi bilan atrofda, ijtimoiy hayotda, nimalar mavjud, unga erishish uchun qanday qonun-qoidalar amal qiladi, farmoyishlar, qonun osti hujjatlari, shuningdek, atrofdegilar bilan munosabatda qonuniy asosda belgilanmagan bo'lsa-da, nimalarga e'tibor berish kerakligi haqidagi axborotlarga ega bo'la boshlaydi, shu bilan birga nimalarga ruxsat etilgan-u, nimalarga ruxsat etilmaganligini e'tiborga olgan holda o'z harakati yo'nalishini aniqlab oladi va ta'sirlashuvni davom ettiradi. Shunday qilib, insonning ijtimoiy olam bilan ta'sirlashuvi uning ijtimoiy harakatlari mazmunini tashkil qiladi. Demak, ijtimoiy gravitatsiya ijtimoiy simmetriyaning eng muhim xususiyati bo'lib, insonlarning jamiyat va davlat qonun-qoidalariga rioya etish darajasini xarakterlaydi. Tabiatdagi simmetriya qonuniyati jonli va jonsiz tizimlardagi jarayonlarni tartibga soluvchi, chegaralovchi va boshqaruvchi, tabiatda nimalar bo'lishi mumkinu, nimalar ruxsat etilmaganligini belgilaydi, namoyon etadi. Ijtimoiy simmetriya ham jamiyatdagi ana shunday xususiyatlarni o'zida mujassamlashtiradi. Bundan, ijtimoiy simmetriyaga rioya etish har qanday davlatning barqaror taraqqiyotida qanchalik katta ahamiyatga ega ekanligini anglash mumkin. Lekin, har qanday davlat yoki jamiyatda ma'lum bir tarixiy davrda obyektiv va subyektiv omillarga ko'ra, insonlarning yashash tarzida, hayotida, dunyoqarashida, ma'naviyatida, madaniyatida, qadriyatlar tizimida, iqtisodiy-ijtimoiy sharoitlarida asimmetriya yuzaga keladi. Bunda ijtimoiy asimmetriya taraqqiyot manbai bo'lib, yangi elementlarini hosil qilishi va jamiyatning rivojlanishini yangi bosqichga olib chiqishi mumkin.

**NATIJALAR.** Har bir tarixiy davrda jamiyat o'z taraqqiyoti davomida vujudga kelgan muammolarni hal etish uchun shaxsning muayyan tarixiy namunalarini yaratadi. Har bir o'zgartirish tarixiy sharoitda shaxs mohiyatini va mazmunini yangicha tushunish zaruriyati vujudga keladi. "...ba'zi sharoitlarda individual yoki alohida shaxs faoliyati muhim tabiiy, ijtimoiy, tarixiy voqeliklarga sabab bo'lishi mumkin" [8.B.93]. Ya'ni, shaxsning muayyan namunalari o'zi yashayotgan mavjud ijtimoiy simmetriyaga muvofiqlashibgina qolmay, balki uni konstruktiv asimmetriyalar orqali o'zgartirish, uni taraqqiy ettirish imkoniyatlariga ham ega bo'ladi. Mamlakatimizning Birinchi prezidenti I.A.Karimov ana shunday tarixiy shaxs sifatida, faqat sobiq SSSRning manfaatlariga xizmat qilish uchun o'rnatilgan ijtimoiy simmetriyani o'zgartirib, xalqimizni juda og'ir sharoitda o'z ortidan ergashtirdi, o'z taraqqiyot yo'limizni, o'zimizga mos va xos bo'lgan ijtimoiy simmetriya tamoyillarini belgilab berdi va uni hayotga keng joriy etdi. Respublikamiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev Birinchi Prezidentimiz tomonidan boshlab berilgan demokratik islohotlarni izchil davom ettirish bilan birgalikda, mavjud ijtimoiy simmetriyaga tegishli o'zgartirishlar, ya'ni konstruktiv xarakterdagi asimmetriya elementlarini kiritdi. Bu jarayon oldin mavjud bo'lgan ijtimoiy simmetriyani inkor etmaydi, balki uni bugungi kun talablariga mos holda asimmetriya elementlari bilan qurollantiradi, xalqchilligini, samaradorligini hamda ularni amalga oshirish mexanizmlarini rivojlantiradi. Bunday ongli jarayonda mavjud ijtimoiy simmetriya asimmetriya elementlari bilan o'zaro ta'sirlashadi va chuqur tahlillar asosida davlat va jamiyatning eng maqbul rivojlanish yo'llari ishlab chiqiladi. Ijtimoiy simmetriya va asimmetriyaning ana shunday maqbulligi ijtimoiy garmoniyani ifodalaydi. Shunday qilib, ijtimoiy simmetriya davlat va jamiyat tomonidan o'rnatiladi, ijtimoiy garmoniya esa faqatgina ijtimoiy simmetriya va asimmetriyaning muvofiqligini emas, balki barchaning (oddiy fuqarodan tortib davlat rahbarigacha) shu o'rnatilgan ijtimoiy simmetriyaga amal qilish darajasini angalatadi. Garmoniklashish shaxs tomonidan muayyan madaniyat an'alariga xos bo'lgan faoliyat va xulq-atvor me'yorini o'zlashtirish, xulq-atvor va tartib-qoidalarni anglash jarayoni hamdir. Ijtimoiy garmoniyada shaxsning jamiyatda o'rnatilgan tartib-intizomni o'z imkoniyatlari va

ijtimoiy muhit talablari bilan muvofiqlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Agarda qaysi davlatda ijtimoiy garmoniya yuqori darajada bo'lsa, shu davlat har tomonlama taraqqiy etadi. Shaxsning ijtimoiy muhit bilan garmoniklashish jarayonida unda ijtimoiy muhitning xususiyatlari shakllanadi. Buni falsafiy jihatdan qismda butunning xususiyatlarini shakllanish jarayoni sifatida qarash mumkin va aynan shu jarayon ijtimoiy borliqning fraktallik tabiatiga ega ekanligidan dalolat beradi. Lekin, ijtimoiy fraktallik fizik fraktallarga nisbatan murakkab tabiatga ega bo'lib, bir shaxsning o'zi turli ijtimoiy muhit ta'sirida bo'lganligi bois, unda turli ijtimoiy muhitning xususiyatlari shakllangan bo'lishi mumkin. Bu vaziyatda qism va butun o'zaro munosabatlari yanada murakkablashadi, shuning uchun ham bu masalalarni yechish uchun sistemali yondashuvlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Zamonaviy jamiyatda ijtimoiy dissimmetriyaga, ya'ni uyg'unlikka erishishda uning mexanizmida asosiy o'rinni ijtimoiy rostdash egallab, u quyidagi rostdagichlar va yo'nalishlardan iborat bo'ladi. Asosiy rostdagichlar asosan, davlat, nodavlat va notijorat hamda nazorat qiluvchi tashkilotlar va o'z-o'zini boshqarish organlari faoliyatlari, ijtimoiy hamkorlik, marosimlar, moda, stereotip, menenjment, etiket, urf-odatlardan iborat bo'ladi. Yo'nalishlarga esa, qadriyatlar, g'oyalar, axloqiy me'yorlar, maqsadlar, fikrlar va boshqalar kirib, jamiyat hayotini uyg'unlashtirish amaliyotida muhim ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimiz kadrlar tayyorlash tizimida amalga oshirilayotgan barcha islohotlarning markazida ham, ijtimoiy simmetriyaga rioya qiluvchi yuksak salohiyatli garmonik shaxslarni shakllantirish va ular orqali mamlakatimiz barqaror taraqqiyotini ta'minlash maqsadi yotibdi. Bugungi kunda ijtimoiy borliqdagi jarayonlarni va tashkillashtirish qonuniyatlarini postnokklassik fanlar kontekstida tahlil etish ham dolzarb muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Lekin, zamonaviy tadqiqotlarda jamiyatdagi o'z-o'zini tashkillashtirish hodisalari xuddi tabiatda yuz beradigan "xaosdan tartibga o'tish" jarayoni tarzida o'rganilmoqda. Bu yerda tabiatda yuz beradigan o'z-o'zini tashkillashtirish hodisasining algoritmiga amal qilinmoqda, ya'ni jamiyat kuchli beqarorlik holatiga sinergetik jihatdan "bifurkatsiya nuqtasi"ga kelganda kutilmagan tasodif tufayli attraktorlar ta'sirida boshqa barqarorlik holatiga o'z-o'zidan

o'tadi. Tabiiy sistemalarning o'z-o'zini tashkillashtirish qonuniyatlarini to'g'ridan-to'g'ri ijtimoiy hayotga tatbiq etilishida o'ta ehtiyotkor bo'lish kerak ekan. Bu birinchi navbatda aniq va tabiiy fanlardagi tushunchalar, atamalar umumiy holda qabul qilinishi bilan bog'liq bo'lib, tabiat sistemalari uchun obyektiv ravishda o'z-o'zini tashkillashtirishning o'zni juda ham katta. Chunki, tabiatdagi strukturalar tashkillashishida fizik konstantalar (o'zgarmaydigan qiymatlar) "oltin kesishuv"larga bo'ysunadi. Sinergetikaning kooperatsiya, murosasozlik, ko'pvariantlilik, ochiqlik kabi tamoyillari ijtimoiy borliqning rivojlanish qonuniyatlarini bilishda juda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, ijtimoiy muammolarga "sinergetik yondashuv – intersubektiv dialog jarayoni bo'lib, doimo o'zining ichki tarixiga, muhokoma mantig'iga, diskursiga ega bo'ladi" [9.B.87].

**XULOSA.** Yuqordagi fikrlarni umumlashtirib aytishimiz mumkinki, jamiyatdagi o'z-o'zini tashkillashtirish jarayonlarini yoki tartibsizlikdan tartibga o'tish qonuniyatlarini o'rganishda simmetriya va asimmetriya hamda garmoniya tamoyillaridan unumli foydalanish lozim. "Sinergetiklar buni tushunadilar, lekin hozirgacha ham garmonik tahlil metodlaridan foydalanmayaptilar. Bu esa, o'z-o'zidan jamiyatning taraqqiyot qonuniyatlarini anglashda va ularni ishlab chiqishda muammolarni yuzaga keltirmoqda. Chunki, jamiyat – murakkab sistema bo'lib, undagi tartib nafaqat o'z-o'zini tashkillashtirish hisobiga, balki boshqarish jarayonida ham ongli yaratiladi. Demak, jamiyat strukturasi sinergetika asosida shakllangan "toza" obyektiv reallik sifatida qarash, doim ham to'g'ri xulosalarga olib kelmaydi.

Shunday qilib, sinergetika dissimmetriya paradigmasidan unumli foydalansagina, turli tizimlardagi o'z-o'zini tashkillashtirish

qonuniyatlarini chuqur va to'g'ri ifodalay olishi hamda fanlarning haqiqiy metodologiyasiga aylanishi mumkin. Natijada, barqaror taraqqiy etadigan farovon jamiyat qurish imkoniyatlari oshadi.

#### ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Safarova N.O., Bekpo'latov U.R. Simmetriya va asimmetriya (falsafiy–metodologik tahlil). Monografiya.– T, Fan va texnologiyalar, 2018. B.172.
2. Gyorgy Darvas. Symmetry Cultural-historical and ontological aspects of science–arts relations The natural and man-made world in an interdisciplinary approach/Translated from the Hungarian by David Robert Evans. Birkhäuser Verlag AG, Basel – Boston – Berlin. 2007. p. 350.
3. X.H. Ягафарова. Симметрия и самоорганизация: от античной натурфилософии к современной науке. дисс.кан.наук. 2008, УФА, - 171 с.
4. Д.М.Кошлаков. Категори и симметрии и асимметрии в социологических и политологических исследованиях//Вестник Института социология, 2013, №6, -440 с.
5. Yaxshiliev J.Ya, Muhammadiyev N.E. Milliy g'oya – taraqqiyot strategiyasi[Matn]: monografiya– T: Fan, 2017. B.522.
6. Ma'naviyat: asosiy tushunchalar izohli lug'ati. – T.:G'afur G'ulom nomidagi nashriyot–matbaa ijodiy uyi, 2010. B. 460.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risidagi PF-158-sonli Farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/-6600413>
8. Turayev B.O. Borliq: mohiyati, shakllari, xususiyatlari. – T.: Tafakkur. 2011. B. 424.
9. Аршинов В.И. Сinergetika как феномен постнеклассической науки. - М.: РАН. Ин-т философии, 1999. – с.169.

